XALQ DEPUTATLARI QASHQADARYO VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 24-mart VII-9-50-4-0-K/25 Qashqadaryo viloyati

Qashqadaryo viloyatida tashqi reklama obyektlariga tashqi reklamani joylashtirish uchun yig‘imlar miqdorini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-avgustdagi “Tashqi reklama va ijtimoiy axborotning aylanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 428-sonli qaroriga asosan hamda viloyat hokimligining 2025-yil 14-fevraldagi 03-03/1474-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 -, 16^2 - va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. Qashqadaryo viloyatida tashqi reklama obyektlarida (konstruksiyalarida) va transport vositalarida (yo‘nalishlardagi avtobuslar bundan mustasno) tashqi reklamani joylashtirish (tarqatish) uchun yig‘imlar miqdori ***ilova***ga muvofiq tasdiqlansin.

2. Yig‘imlar viloyatning ma’muriy hududida reklama maydoni (sathi)ning bir kvadrat metri uchun bazaviy hisoblash miqdorining 5 foizidan kam bo‘lmagan miqdorda, viloyatning, tuman va shaharlarning iqtisodiy rivojlanishi, yig‘im miqdorini hisoblashda joylashgan zonasidan kelib chiqib:

Qarshi shahriga yuqori texnologiyali konstruksiyalar (LED ekran) uchun 1,1 dan 1,2 gacha, boshqa turdagi konstruksiyalar uchun 0,6 dan 0,7 gacha;

Shahrisabz shahriga yuqori texnologiyali konstruksiyalar (LED ekran) uchun 1,1 dan 1,2 gacha, boshqa turdagi konstruksiyalar 0,6 dan 0,7 gacha;

boshqa tumanlarga yuqori texnologiyali konstruksiyalar (LED ekran) uchun 0,8 dan 0,9 gacha boshqa turdagi konstruksiyalar 0,5 dan 0,6 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llanilishi belgilansin.

Bunda, yig‘im xususiylashtirilgan, ijaraga berilgan yoki nodavlat tashkilotlarga doimiy foydalanish huquqi asosida tegishli bo‘lgan yer uchastkalari, shuningdek, xususiy mulk bo‘lgan binolar va inshootlardagi tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari) uchun ham tatbiq etilsin.

3. Tuman, shaharlar hokimliklariga:

belgilangan hududlarda tashqi reklama obyektlari (konstruksiyalari) joylashtirish uchun beriladigan yer uchastkalari, davlat mulki bo‘lgan bino va inshootlarni aniqlash maqsadida har (6) olti oyda xatlov o‘tkazish;

tashqi reklama obyektlarini (konstruksiyalarini) tizimli monitoring qilish va ularni qonuniy joylashtirilganligini o‘rganish;

tashqi reklama obyektlarida (konstruksiyalarida) joylashtirilgan reklamalar, shu jumladan ijtimoiy reklamalar hisobini yuritish;

yo‘lning qatnov qismida joylashgan aholi turar-joy binolarining tashqi qismida har qanday turdagi shaxsiy e’lonlarni joylashtirilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

aniqlangan qonunbuzilish holatlari bo‘yicha tegishli chora ko‘rish uchun viloyat Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish boshqarmasiga takliflar kiritib borish vazifalari yuklatilsin.

4. Viloyat soliq boshqarmasi (S.Eshmatov) va tuman (shahar) hokimliklari tashqi reklama obyektlari (konstruksiyalari) ga o‘rnatishga bo‘lgan huquq uchun oylik yig‘imlardan tushadigan mablag‘larni undirilishini tashkil etsin va qat’iy nazorat o‘rnatsin.

5. Viloyat ichki ishlar boshqarmasi yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi (I.Idirov)tashqi reklama axborotini noqonuniy o‘rnatib olgan avtotransport vositalariga nisbatan tegishli tartibda choralar ko‘rib borsin va doimiy nazorat ishlarini tashkillashtirsin.

6. Mazkur qaror “Qashqadaryo” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyat Kengashining 2024-yil 16-fevraldagi VI-69-17-4-0-K/24-sonli “Qashqadaryo viloyatida tashqi reklama obyektlariga tashqi reklamani joylashtirish uchun yig‘imlar miqdorini, tashqi reklama va axborot obyektlarini o‘rnatish uchun ommaviy oferta shartnomasini namunaviy shaklini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorning 1- va 2-ilovalari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

8. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab 15 kundan keyin kuchga kiradi.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi O.Ravshanov hamda viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari A.Qodirov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

XUSHMURODOVA
ISMIGUL
BERDIMURODOVNA

Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati
Kengashining
2025-yil 24-martdagi
VII-9-50-4-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Qashqadaryo viloyatida tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyasini) o‘rnatish va unda reklamani joylashtirishga bo‘lgan huquq uchun oylik yig‘imlar miqdori

T/r	Reklama obyektlarining turlari	O‘lchov birligi	BHMning* foizi (bir oyga)
I. Yer uchastkalarida o‘rnatilgan alohida turuvchi konstruksiyalar			
1.1	kichik formatdagi (2,19 kv.m.gacha)	kv.m	5
1.2	o‘rta formatdagi (2,2 kv.m.dan 12 kv. m.gacha)	kv.m	5
1.3	katta formatdagi (12 kv.m.dan 18 kv. m.gacha)	kv.m	5
1.4	o‘ta katta formatdagi (18 kv.m.dan ortiq)	kv.m	5
1.5	hajmli-fazoviy qurilma	kv.m	5
1.6	bayroqli reklamalar to‘plami (kompozitsiya)	kv.m	5
1.7	reklama modullariga ega ko‘rsatkichlar	kv.m	5
1.8	umumiy maydoni 3 kv.m.dan ortiq afisha devorlar	kv.m	5
II. Binolar, inshootlar va qurilmalardagi reklama konstruksiyalari			
2.1	binoning tashqi qismida joylashtirilgan konstruksiyalar	kv.m	5
2.2	binolarning tom qismlaridagi konstruksiyalar — me’moriy shakl (haykallar)	kv.m	5
2.3	maydoni 2 kv.m va undan ortiq bo‘lgan yirik konstruksiyalar	kv.m	5
2.4	pavilonlardagi konstruksiyalar	kv.m	5
2.5	ko‘cha mebeli, xususan, reklama moduli o‘rnatilgan o‘rindiqlar	kv.m	5
2.6	maydonli to‘siqlardagi konstruksiyalar	kv.m	5
2.7	ko‘priklarda, yo‘l o‘tkazgichlar, quvur liniyalari, yoritish tirgaklarida o‘rnatilgan konstruksiyalar	kv.m	5
2.8	Markazlar	kv.m	5

2.9	reklama bloklari	kv.m	5
2.10	proyeksiyali uzatma	kv.m	5
2.11	konsol panellar	kv.m	5
2.12	imidjli reklama va axborot qurilmalari	kv.m	5
2.13	hajmli-fazoviy qurilma	kv.m	5
2.14	tom usti yorug‘li reklama konstruksiyasi	kv.m	5
III. Tashqi reklama vaqtinchalik obyektlari (konstruksiyalari)			
3.1	qurilish maydonchalaridagi 2 kv.m va undan ko‘p bo‘lgan vaqtincha reklama to‘siqlari	kv.m	5
3.2	2 kv.m va undan ko‘p bo‘lgan umumiy ovqatlanish va savdo nuqtalaridagi reklama	kv.m	5
3.3	vaqtincha turdagi kiosklar va pavilonlardagi reklama	kv.m	5
3.4	plakatlar, chodirlar, soyabonlar, kanoplar, bayroqlar, osmabayroqlar, yelkanli bayroqlardagi reklama	kv.m	5
3.5	nostandart shakldagi konstruksiyalar	kv.m	5
3.6	promo qurilmalar	kv.m	10
3.7	alohida turuvchi yorug‘li kronshteynlar	kv.m	5
IV. Yorug‘li-diodli monitorlar, elektr ekranlar (video ekranlar, displeylari va boshqalar)			
4.1	50 kv.m.gacha	kv.m	18
4.2	51 kv.m.dan 150 kv.m.gacha	kv.m	15
4.3	151 kv.m.dan 300 kv.m.gacha	kv.m	10
4.4	300 kv.m.dan ortiq	kv.m	5
4.5	Mediafasadlar	kv.m	5
4.6	Avtobus to‘xtash bekatlari	kv.m	18
V. Transport vositalaridagi reklamalar (yo‘nalishlardagi avtobuslar bundan mustasno)			
T/r	**Transport vositalarining toifalari**	**O‘lchov birligi**	**BHMning* foizi (bir yillik)**
5.1	L1-L7 — mototransport vositalari	dona	50
5.2	M1 toifasi - yo‘lovchilarni tashish uchun foydalaniladigan va haydovchining o‘rindig‘idan tashqari o‘rindiqlar soni 8 tadan oshmaydigan avtotransport vositalari	dona	150
5.3	M2 toifasi - yo‘lovchilarni tashish uchun foydalaniladigan, haydovchining o‘rindig‘idan tashqari o‘rindiqlar soni 8 tadan ortiq va eng katta vazni 5 t gacha bo‘lgan avtotransport vositalari	dona	200
5.4	M3 toifasi - yo‘lovchilarni tashish uchun foydalaniladigan, haydovchining o‘rindig‘idan tashqari o‘rindiqlar soni 8 tadan ortiq va eng	dona	300

	katta vazni 5 t dan ko‘p bo‘lgan avtotransport vositalari		
5.5	N1 toifasi — yuk tashish uchun mo‘ljallangan, eng katta vazni 3,5 t dan oshmaydigan avtotransport vositalari	dona	300
5.6	N2 toifasi — yuk tashish uchun mo‘ljallangan, eng katta vazni 3,5 t dan ortiq, lekin 12 t dan oshmaydigan avtotransport vositalari	dona	300
5.7	N3 toifasi — yuk tashish uchun mo‘ljallangan, eng katta vazni 12 t dan ortiq bo‘lgan avtotransport vositalari	dona	700
5.8	O1 toifasi — eng katta vazni 0,75 t dan oshmaydigan tirkamalar	dona	100
5.9	O2 toifasi — eng katta vazni 0,75 t dan ortiq, lekin 3,5 t dan oshmaydigan tirkamalar	dona	200
5.10	O3 toifasi — eng katta vazni 3,5 t dan ortiq, lekin 10 t dan oshmaydigan tirkamalar	dona	300
5.11	O4 toifasi — eng katta vazni 10 t dan ortiq bo‘lgan tirkamalar.	dona	500
5.12	Ko‘targich-transport uskunalari	dona	550

Izohlar: **BHM – amaldagi bazaviy hisoblash miqdori.*

-Tashqi reklama obyektlariga (konstruksiyalariga) tashqi reklamani joylashtirish uchun yig‘imlar miqdorini hisoblashda tuman va shaharlarning hududiy zona koeffitsiyentlari qo‘llaniladi.

Qashqadaryo viloyatida tashqi reklama obyektlari (konstruksiyalari)ni joylashtirish uchun yig‘imlar miqdoriga qo‘llaniladigan koefitsiyentlar

1. **Qarshi shahri:**

T/r	Zonalar	Ko‘chalar nomi	Koefitsiyentlar
1	1-zona	Islom Karimov shoh ko‘chasi, Mustaqillik shoh ko‘chasi, A.Temur shoh ko‘chasi, Nasaf shoh ko‘chasi, Bunyodkorlik ko‘chasi, Jayxun ko‘chasi, Qarliqbog‘ot ko‘chasi, Buyuk Turon ko‘chasi, A.Navoiy shoh ko‘chasi.	Led ekran uchun 1,2 boshqa turdagi konstruksiyalari uchun 0,7
2	2-zona	Xonobod yo‘li ko‘chasi, Kamandi ko‘chasi, G‘uzor yo‘li ko‘chasi, Shahrisabz ko‘chasi, Beshkent yo‘li ko‘chasi, Koson yo‘li ko‘chasi, Samarqand ko‘chasi va boshqa barcha ichki ko‘chalar.	Led ekran uchun 1,1 boshqa turdagi konstruksiyalari uchun 0,6

2. **Shahrisabz shahri.**

T/r	Zonalar	Ko‘chalar nomi	Koefitsiyentlar

1	1-zona	Ipak yo‘li ko‘chasi.	Led ekran uchun 1,2 boshqa turdagi konstruksiyalari uchun 0,7
2	2-zona	Boshqa ichki ko‘chalar.	Led ekran uchun 1,1 boshqa turdagi konstruksiyalari uchun 0,6

3. **Boshqa tumanlar.**

T/r	Zonalar	Ko‘chalar nomi	Koefitsiyentlar
1	1-zona	Tuman markazidagi ko‘chalar.	Led ekran uchun 0,9 boshqa turdagi konstruksiyalari uchun 0,6
2	2-zona	Boshqa ichki ko‘chalar.	Led ekran uchun 0,8 boshqa turdagi konstruksiyalari uchun 0,5

Izoh: *Ikkita ikki xil zonaga kirgan ko‘chalar chorrahasida joylashtirilgan obyektlar zonasi yuqoriroq bo‘lgan zona stavkasi bo‘yicha hisoblanadi.*

To‘lov miqdorini quyidagicha belgilanadi.

T = B x M x K /100 bunda:
T – bir oyda 1 kv.metr uchun yig‘im miqdori;
B – amaldagi bazaviy hisoblash miqdori stavkasi;
M – bazaviy hisoblash miqdorining belgilangan foizi;
K – hududiy zonalar koeffitsiyenti.